



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI NAVOIY VILOYATI HOKIMINING QARORI

Navoiysh., IslomKarimovsh.k 77 A

2023 - yil 30 - yanvar

9-5-0-Q/23

Navoiy viloyat hokimligi

Navoiy viloyatidagi davlat ko‘chmas mulkidan foydalanganlik uchun 2023-yilda qo‘llaniladigan ijara to‘lovining eng kam stavkalari to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2009-yil 8-apreldagi “Davlat mulkini ijaraga berish tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 102-sonli qarori (O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlar to‘plami, 2009-y., 15-son, 186-modda)ning 3-bandiga muvofiq, O‘zbekiston Respublikasi Davlat aktivlarini boshqarish agentligining 2022-yil 30-dekabrda 01/26-19-2212-sonli, Iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish vazirligining 2022-yil 30-dekabrda 02-24/10-5709-sonli, Moliya vazirligining 2022-yil 30-dekabrda 02/04-32/15-sonli kelishuv xatlariga asosan 2023-yilda davlat ko‘chmas mulkidan foydalanganlik uchun ijara to‘lovining eng kam stavkalarini inobatga olgan holda, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6-moddasiga asoslanib

QAROR QILAMAN:

1. Quyidagilar:

Navoiy shahrida davlat ko‘chmas mulkidan foydalanganlik uchun 2023-yilda qo‘llaniladigan ijara to‘lovining eng kam stavkalari 1-ilovaga muvofiq;

Zarafshon, G‘ozg‘on shaharlari va tumanlarda davlat ko‘chmas mulkidan foydalanganlik uchun 2023-yilda qo‘llaniladigan ijara to‘lovining eng kam stavkalari 2-ilovaga muvofiq;

ijara to‘lovi stavkalariga qo‘llaniladigan oshiruvchi koeffitsiyentlar 3-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. Bo‘sh turgan obyektlardan samarali foydalanishni tashkil etish markazi

Navoiy viloyati hududiy boshqarmasi (A.Sharipov)ga:

davlat mulkini ijaraga berishni tashkil etish va ijaraga berish;

ijaraga berilayotgan davlat mulkini va uni ijaraga berishdan tushadigan mablagʻni hisobga olish va monitoringini olib borish;

ijaraga beriladigan davlat mulki boʻyicha maʼlumotlar bazasini shakllantirish va yuritish;

ijaraga berilgan davlat mulkini har chorakda xatlovdan oʻtkazish;

foydalanilmayotgan davlat mulki ijaraga berilishi toʻgʻrisidagi eʼlonlarni va ijaraga berilayotgan davlat mulki roʻyxatini “E-auksion” elektron savdo maydonchasida, davriy nashrlarida hamda Oʻzbekiston Respublikasi Davlat aktivlarini boshqarish agentligi va Savdo-sanoat palatasining veb-saytlarida joylashtirilishini taʼminlash topshirilsin.

3. Boʻsh turgan obyektlardan samarali foydalanishni tashkil etish markazi Navoiy viloyati hududiy boshqarmasi (A. Sharipov), viloyat davlat soliq boshqarmasi (A.Botiraliyev), shahar va tuman hokimliklari hududlarda ijara munosabatlarini tartibga solish, ijaraga berilayotgan davlat mulki hisobotini toʻgʻri yuritish va budjetga qoʻshimcha mablagʻlarni jalb qilish maqsadida davlat mulkini balansda saqlovchilar tomonidan ijaraga berish samaradorligini oshirish va tashkillashtirishda oʻzaro hamkorlikni yoʻlga qoʻysinlar.

4. Viloyat moliya bosh boshqarmasi (D. Ochilov) Boʻsh turgan obyektlardan samarali foydalanishni tashkil etish markazining Navoiy viloyat hududiy boshqarmasi (A. Sharipov) bilan birgalikda davlat mulki obyektlarini ijaraga berish hisobiga mahalliy budjetga tushadigan mablagʻlarni nazoratga olsin hamda tushgan mablagʻlardan maqsadli foydalanilishini taʼminlasin.

5. Viloyat hududida 2023-yilda Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2009-yil 8-apreldagi “Davlat mulkini ijaraga berish tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi 102-sonli qarorining 3.1-bandiga asosan davlat mulki boʻlgan binolar va xonalarda joylashgan budjet tashkilotlari uchun ijara toʻlovining “nol” stavkasi belgilansin.

6. Viloyat hokimligi axborot xizmati (B. Pirnafasov) va viloyat hokimligi huzuridagi “Axborot kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish markazi” davlat unitar korxonasi (X. Farmonov) birgalikda mazkur qarorni “Doʻstlik bayrogʻi” va “Znamya drujbi” gazetalarida eʼlon qilinishini hamda viloyat hokimligining rasmiy veb-saytida joylashtirilishini taʼminlasin.

7. Viloyat hokimining 2022-yil 4-fevraldagi “Navoiy viloyatidagi davlat ko‘chmas mulkidan foydalanganlik uchun 2022-yilda qo‘llaniladigan ijara to‘lovining eng kam stavkalari to‘g‘risida”gi 24-5-0-Q/22-sonli qarori ("Do‘stlik bayrog‘i gazetasi, 09.02.2022-yil, 6-son (4078)) o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.

8. Ushbu qaror rasmiy e‘lon qilingan kundan boshlab kuchga kiradi.

9. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish viloyat hokimining birinchi o‘rinbosari T.Atamurodov zimmasiga yuklansin.

Viloyat hokimi



N.Tursunov

Navoiy viloyat hokimining
2023 yil 30 yanvardagi
9-5-0-Q/23-son qaroriga
1-ilova

Navoiy shahrida davlat ko'chmas mulkidan foydalanganlik uchun 2023-yilda 1 (bir)
kv.m maydon uchun qo'llaniladigan ijara to'lovining eng kam stavkalari

(so'mda)

T/r	Ijaraga beriladigan maydondan foydalanish maqsadi	1 kv.metr maydon uchun 2023-yilga ijara stavkasi (QQS bilan)
Sanoat		
1	Yoqilg'i ishlab chiqarish	11 900
2	Kimyoviy ishlab chiqarish (o'g'it mahsulotlari)	11 900
3	Neft-kimyo sanoati	11 900
4	Mashinasozlik va asbobsozlik sanoati	11 900
5	Hisoblash texnikalarini ishlab chiqarish	11 900
6	Traktorsozlik va qishloq xo'jaligi mashinasozligi	9 700
7	Yengil, va oziq-ovqat sanoati mashinasozligi hamda maishiy anjomlar sanoati	11 900
8	Sanitariya va gaz uskunalari va mahsulotlarini ishlab chiqarish	11 900
9	Metal konstruksiyalar va mahsulotlar sanoati	11 900
10	Mashina va uskunalarini ta'mirlash	11900
11	Mashinasozlikning boshqa tarmoqlari	11900
12	Ichimliklar ishlab chiqarish	11 900
13	Tamaki mahsulotlari ishlab chiqarish	11 900
14	Asosiy farmasevtika mahsulotlari va preparatlari ishlab chiqarish	11 900
15	Rezina va plastmassa ishlab chiqarish	37 700
Qurilish sanoati		
16	Qurilish, yo'l va kommunal muhandislik	9 700
17	Deraza, eshiklar va mebel ishlab chiqarish sanoati (yog'ochdan)	35 900
18	Deraza, eshik va mebellar ishlab chiqarish(plastik, alyumin va MDFdan)	63 000
19	Loyiha, loyiha-qidiruv tashkilotlari	11 900
20	Shlakoblok ishlab chiqarish	11 600
21	Polietilen mahsulotlari ishlab chiqarish	37 700
22	Boshqa qurilish mahsulotlari ishlab chiqarish	26 700
O'rmon, yog'ochni qayta ishlash va sellyuloza-qog'oz sanoati		
23	Yog'och mahsulotlarini tayyorlash sanoati	11 900
24	Yog'ochni qayta ishlash sanoati	11 900
25	Sellyuloza-qog'oz mahsulotlari sanoati	11 900
Yengil sanoat		
26	To'qimachilik sanoati	11 900
27	Tikuvchilik sanoati	11 900
28	Charim, mo'yna va poyabzal mahsulotlari sanoati	11 900
29	Yengil sanoatning boshqa ishlab chiqarish turlari	11 900

Oziq-ovqat sanoati		
30	Oziq-ovqat sanoati (baliq, go'sht, yog'-pishloq va sut mahsulotlari ishlab chiqarishdan tashqari)	11 900
31	Go'sht mahsulotlari sanoati	11 900
32	Sut mahsulotlari sanoati	23 300
33	Baliq mahsulotlari sanoati	11 900
34	Tegirmonchilik sanoati	11 900
35	Kombikorm (omuxta yem) sanoati	9 700
36	Qandolat mahsulotlarini ishlab chiqarish	11 900
37	Oziq-ovqat sanoatining boshqa tarmoqlari	11 900
Sanoatning boshqa tarmoqlari		
38	Tibbiyot sanoati	11 900
39	Poligrafiya	29 200
40	Kiyimlarni va gazlamalardan tayyorlangan buyumlarni kimyoviy tozalash, bo'yash, yuvish va matolarni qayta ishlash	14 600
Qishloq xo'jaligi		
41	O'simlikshunoslik 1 gektar yer maydoni uchun	4 798 000
42	Issiqxona xo'jaligi	9 000
43	Chorvachilik va parandachilik	5 700
44	Baliqchilik (shu jumladan sun'iy maydon) 1 gektar uchun	4 798 000
45	Asalarichilik 1 gektar yer maydoni uchun	3 119 000
46	Veterrinariya xizmatlari	11 900
47	Qishloq xo'jaligiga xizmat ko'rsatuvchi boshqa tashkilotlar	11 900
48	O'rmon xo'jaligi (shu jumladan bog'lar) 1 gektar yer maydoni uchun	4 798 000
Transport va aloqa		
49	Transport infratuzilmalari (avtopark, taksopark, avtomobil to'xtash joylari va garaj)	11 900
50	Transport infratuzilmalari (jarima maydonlari)	3 000
51	Avtomobillarni yuvish	38 500
52	Avtomobillarga yonilg'i quyish (benzin, dizel)	38 500
53	Avtomobillarga yonilg'i quyish (gaz qo'yish shaxabchasi)	46 800
54	Elektromobillarni quvvatlash shahobchasi	20 400
55	Aholi buyurtmasiga asosan yuk tashish va boshqa transport-ekspeditsiya xizmatlari	21 620
56	Pochta aloqasi	11 900
57	Kurerlik aloqasi	24 000
58	Elektr-simli aloqa	24 000
59	Radio, uyali aloqa va peydjer aloqasi (inshootlarni hisobga olgan holda hudud doirasida)	100 800
Savdo va umumiy ovqatlanish		
60	Ulgurji savdo	33 600
61	Mahsulotlarni (xizmatlarni) qismlab savdo faoliyatini amalga oshiruvchi ulgurji savdo bozorlaridagi savdo do'konlari	86 300
62	Chakana savdo	33 600
63	Umumiy ovqatlanish	33 600
64	Yarim tayyor oziq-ovqat mahsulotlarini tayyorlash va sotish (fast fud)	52 600

65	Kitob do'konlari	4 700
66	Lombardlar	43 400
Xizmat ko'rsatish		
67	Madaniy-maishiy maqsadlardagi hamda xo'jalik buyumlarini ijaraga berish joylari	33 600
68	Internet va kompyuter tarmoqlari orqali xizmatlar ko'rsatish (nusxa ko'chirish xizmati)	33 600
69	Kompyuter o'yinlarini tashkil etish	50 400
70	Ko'chmas mulklar bilan bog'liq munosabatlar	33 600
71	Reklama, ko'rgazmalar xizmatlari	33 600
72	Geologiya va tabiiyliklarni qidirish, va gidrometeorologiya xizmatlari	60 000
73	Mehmonxona xo'jaligi	38 400
74	Umumiy yashash joylari	29 900
75	Maishiy xizmatning noishlab chiqarish turlari	19 320
76	Sartaroshxona, fotosalon, modalar atelesi, poyabzallarni ta'mirlash ustaxonasi	28 900
77	Hammomlar	57 800
78	Saunalar va basseynlar	115 200
79	Paxta (ilgari iste'molda bo'lgan) va jun tozalash hamda titish xizmatlari	19 300
Sog'liqni saqlash, jismoniy tarbiya va ijtimoiy ta'minot		
80	Sog'liqni saqlash	24 000
81	Tibbiy diagnostika xizmati (shu jumladan laboratoriya	44 200
82	Sayyohlik va dam olishni tashkil etish	24 000
83	Fitobar	16 600
84	Madaniy ko'ngilochar markazlar (bilyard, o'yin avtomatlari, diskoteka va boshqalar)	38 400
85	Jismoniy tarbiya va sport	11 900
86	Dorixonalar	19 300
87	Optika, tibbiyot anjomlari va jihozlar savdo do'konlari	40 400
88	Ijtimoiy-dorixonalar	17 100
Ta'lim		
89	Oliy va o'rta-maxsus ta'limi ma'lumotli kadrlarni tayyorlash (o'quv kurslari bilan)	19 320
90	O'quv kurslari tashkel etish	39 600
91	Ishchilar va xizmatchilarni tayyorlash va malakasini oshirish	15 065
92	Bolalar umumta'lim maktablari (nodavlat ta'lim muassasalari uchun)	9 700
93	Oliy va o'rta maxsus ta'lim muassasalarida umumiy ovqatlanish	23 400
93	O'quv muassasalarida umumiy ovqatlanish	11 900
95	Maktabgacha tarbiya muassasalari (nodavlat ta'lim muassasalari uchun)	8 500
96	Madaniyat va san'at	33 600
97	Ko'rgazmalar	25 900
98	Madaniyat va dam olish bog'lari	24 000
99	Botanika bog'lari va zooparklar	24 000

100	Televideniya va radioeshittirishlar redaksiyalari	24 000
101	Kinostudiyalar, ovoz yozish studiyalari	38 400
102	Fan va ilmiy xizmatlar ko'rsatish	14 600
103	Avtomaktablar	21 300
Moliya-kredit faoliyati		
104	Moliya, kredit va pensiya ta'minoti (sug'urtalash va auditorlik faoliyatidan tashqari)	33 600
105	Auditorlik faoliyati	33 600
106	Marketing tadqiqotlari, tijorat, moliya va boshqaruv faoliyatlari bo'yicha maslahatxonalar	33 600
107	Bank faoliyati	33 600
Faoliyatning boshqa turlari		
108	Sug'urta va notarial xizmatlar	33 600
109	Sud va yuridik xizmat muassasalari	28 900
110	Advokatlar kollegiyasi va yuridik maslahatxonalar	28 900
1101	Jamoatchilik birlashmalari	9 700
112	Omborxonalar	33 600
113	Davlat tashkilotlariga ofis	14 600
114	Xususiy tashkilotlarga ofis	52 600
115	Arxiv xizmati	14 600
116	Tahririyat va nashriyotlar	19 300
117	Metallolom va ikkilamchi qog'oz (latta) mahsulotlarini to'plash joylari	19 300
118	Turar joy-kommunal xo'jaliklari	19 300
119	Yengil avtomashinalar va boshqa turdagi transport vositalarini ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatish	38 400
120	Vulkanizatsiya, payvandlash, chilangarlik ishlarining barcha turlari	29 200
121	Laboratoriyalar	24 000
122	Turli xizmat turlari to'lovlari (paynet)	96 400
123	Madaniy meros obyektlar bino va inshootlarida joylashgan savdo do'konlari	52 600
124	Madaniy meros obyektlari va inshootlarida joylashgan umumiy ovqatlanish shoxobchalari	46 100
125	Hunarmandchilik turlari bo'yicha (yodgorlik majmualari yasam, misgarlik, o'ymakorlik, rassomchilik, do'ppido'zlik, telnak, cho'girma, chopon,x.k)	28 400
126	Avia kassalar (shu jumladan temir yo'l, avtotransport va boshqalar)	52 600
127	Bankomatlar	480 800
128	Non-bulka mahsulotlari ishlab chiqarish	33 600

Izoh:

- O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 24.07.2014-yildagi 02/107-2670-son topshirig'iga asosan 2014-yilning 1-avgustidan boshlab

"Tadbirkorlik va ishbilarmonlik xarakati" O'zbekiston Liberal Demokratik partiyasining Qoraqalpog'iston Respublikasi, Qashqadaryo, Navoiy, Farg'ona, Toshkent viloyatlari va Toshkent shahri (shu jumladan Mirobod tumani) Kengashlari, shuningdek, "XXI asr" ijtimoiy-siyosiy gazetasi tahririyati uchun O'zbekiston Liberal Demokratik Partiyasi balansidagi tegishli davlat mulki obyektlaridan foydalanganlik uchun ijara to'lovining "nol" stavkasi belgilangan.

- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 29.09.2017-yildagi "Navoiy viloyatining Tomdi, Uchquduq, Konimex, Nurota tumanlari va Zarafshon shahrini kompleks rivojlantirish hamda aholisi bandligini ta'minlashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-3301-son qaroriga asosan, 2017-yilning 1-oktabridan boshlab Navoiy viloyatining Tomdi, Uchquduq, Konimex, Nurota tumanlari va Zarafshon shahrida joylashgan foydalanilmasdan bo'sh turgan davlat mulki obyektlari tadbirkorlik subyektlariga yangi ish o'rinlarini yaratish sharti bilan 10 yillik muddatga ijara to'lovining "nol" stavkasi asosida ijaraga beriladi.

- O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 16.10.2017-yildagi "Yoshlar tadbirkorlik klasterlarini tashkil etishga doir tashkiliy chora-tadbirlari to'g'risida"gi 834-son qarori muvofiq, davlat mulki, shu jumladan erkin iqtisodiy va kichik sanoat zonalari hududida joylashgan davlat mulki obyektlari O'zbekiston Yoshlar ittifoqi a'zosi bo'lgan yosh tadbirkorlarga O'zbekiston Yoshlar ittifoqining shahar va tuman kengashlari tavsiyanomasiga asosan 5 yildan ko'p bo'lmagan muddatga ijara to'lovining "nol" stavkasi asosida beriladi.

- O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 16.08.2017-yildagi 14/1-1959-sonli topshirig'iga asosan 2018-yildan boshlab O'zbekiston Respublikasi Jismoniy tarbiya va sport vazirligining tavsiyasiga asosan Olimpiya o'yinlari g'oliblari va sovrindorlariga xususiy sport muassasalarini tashkil etish uchun davlat mulki, shu jumladan aholi kam joylashgan hududlardagi yer maydonlari ijara to'lovining "nol" stavkasi asosida ajratiladi.

Navoiy viloyat hokimining
2023 yil 30 yanvardagi
9-5-0-Q/23-son qaroriga
2-ilova

**Zarafshon, G‘azg‘on shaharlari va tumanlarda davlat ko‘chmas mulkidan
foydalanish uchun 2023-yilda 1 (bir) kv.m maydon uchun qo‘llaniladigan
ijara to‘lovining eng kam stavkalari**

T/r	Ijaraga beriladigan maydondan foydalanish maqsadi	1 kv.metr maydon uchun 2023-yilga ijara stavkasi (QQS bilan)
Sanoat		
1	Yoqilg‘i ishlab chiqarish	8 700
2	Kimyoviy ishlab chiqarish (o‘g‘it mahsulotlari)	8 700
3	Neft-kimyo sanoati	8 700
4	Mashinasozlik va asbobsozlik sanoati	8 700
5	Hisoblash texnikalarini ishlab chiqarish	8 700
6	Traktorsozlik va qishloq xo‘jaligi mashinasozligi	7 200
7	Yengil, va oziq-ovqat sanoati mashinasozligi hamda maishiy anjomlar sanoati	7 200
8	Sanitariya va gaz uskunalari va mahsulotlarini ishlab chiqarish	8 700
9	Metal konstruksiyalar va mahsulotlar sanoati	8 700
10	Mashina va uskunalarni ta‘mirlash	8 700
11	Mashinasozlikning boshqa tarmoqlari	8 700
12	Ichimliklar ishlab chiqarish	8 700
13	Tamaki mahsulotlari ishlab chiqarish	8 700
14	Asosiy farmasevtika mahsulotlari va preparatlari ishlab chiqarish	8 700
15	Rezina va plastmassa ishlab chiqarish	28 300
Qurilish sanoati		
16	Qurilish, yo‘l va kommunal muhandislik	7 200
17	Deraza, eshiklar va mebel ishlab chiqarish sanoati (yog‘ochdan)	26 600
18	Deraza, eshik va mebellar ishlab chiqarish (plastik, alyumin va MDFdan)	37 300
19	Loyiha, loyiha-qidiruv tashkilotlari	8 700
20	Shlakoblok ishlab chiqarish	8 700
21	Polietilen mahsulotlari ishlab chiqarish	28 300
22	Boshqa qurilish mahsulotlari ishlab chiqarish	20 050
O‘rmon, yog‘ochni qayta ishlash va sellyuloza-qog‘oz sanoati		
23	Yog‘och mahsulotlarini tayyorlash sanoati	8 700
24	Yog‘ochni qayta ishlash sanoati	8 700
25	Sellyuloza-qog‘oz mahsulotlari sanoati	8 700
Yengil sanoat		
26	To‘qimachilik sanoati	8 700
27	Tikuvchilik sanoati	8 700
28	Charim, mo‘yna va poyabzal mahsulotlari sanoati	8 700

T/r	Ijaraga beriladigan maydondan foydalanish maqsadi	1 kv.metr maydon uchun 2023-yilga ijara stavkasi (QQS bilan)
29	Yengil sanoatning boshqa ishlab chiqarish turlari	8 700
Oziq-ovqat sanoati		
30	Oziq-ovqat sanoati (baliq, go'sht, yog'-pishloq va sut mahsulotlari ishlab chiqarishdan tashqari)	8 700
31	Go'sht mahsulotlari sanoati	8 700
32	Sut mahsulotlari sanoati	17 400
33	Baliq mahsulotlari sanoati	8 700
34	Tegirmonchilik sanoati	8 700
35	Kombikorm (omuxta yem) sanoati	7 200
36	Qandolat mahsulotlarini ishlab chiqarish	8 700
37	Oziq-ovqat sanoatining boshqa tarmoqlari	8 700
Sanoatning boshqa tarmoqlari		
38	Tibbiyot sanoati	8 700
39	Poligrafiya	25 000
40	Kiyimlarni va gazlamalardan tayyorlangan buyumlarni kimyoviy tozalash, bo'yash, yuvish va matolarni qayta ishlash	10 600
Qishloq xo'jaligi		
41	O'simlikshunoslik 1 gektar yer maydoni uchun	3 559 100
42	Issiqxona xo'jaligi	8 000
43	Chorvachilik va parrandachilik	4 300
44	Baliqchilik (shu jumladan sun'iy maydon) 1 gektar uchun	3 559 100
45	Asalarichilik 1 gektar yer maydoni uchun	2 313 600
46	Veterinariya xizmatlari	8 700
47	Qishloq xo'jaligiga xizmat ko'rsatuvchi boshqa tashkilotlar	8 700
48	O'rmon xo'jaligi (shu jumladan bog'lar) 1 gektar yer maydoni uchun	3 559 100
Transport va aloqa		
49	Transport infratuzilmalari (avtopark, taksopark, avtomobil to'xtash joylari va garaj)	8 700
50	Transport infratuzilmalari (jarima maydonlari)	2 400
51	Avtomobillarni yuvish	25 100
52	Avtomobillarga yonilg'i quyish (benzin, dizel)	32 400
53	Avtomobillarga yonilg'i quyish (gaz qo'yish shaxabchasi)	35 100
54	Elektromobillarni quvvatlash shahobchasi	15 300
55	Aholi buyurtmasiga asosan yuk tashish va boshqa transport- ekspeditsiya xizmatlari	16 200
56	Pochta aloqasi	8 700
57	Kurerlik aloqasi	17 700
58	Elektr-simli aloqa	17 700
59	Radio, uyali aloqa va peydjer aloqasi (inshootlarni hisobga olgan holda hudud doirasida)	74 800
Savdo va umumiy ovqatlanish		
60	Ulgurji savdo	25 000
61	Mahsulotlarni (xizmatlarni) qismlab savdo faoliyatini amalga oshiruvchi ulgurji savdo bozorlaridagi savdo do'konlari	63 900

T/r	Ijaraga beriladigan maydondan foydalanish maqsadi	1 kv.metr maydon uchun 2023-yilga ijara stavkasi (QQS bilan)
62	Chakana savdo	25 000
63	Umumiy ovqatlanish	25 000
64	Yarim tayyor oziq-ovqat mahsulotlarini tayyorlash va sotish (fast fud)	36 100
65	Kitob do'konlari	3 600
66	Lombardlar	32 200
Xizmat ko'rsatish		
67	Madaniy-maishiy maqsadlardagi hamda xo'jalik buyumlarini ijaraga berish joylari	25 000
68	Internet va kompyuter tarmoqlari orqali xizmatlar ko'rsatish (nusxa ko'chirish xizmati)	25 000
69	Kompyuter o'yinlarini tashkil etish	37500
70	Ko'chmas mulklar bilan bog'liq munosabatlar	25 000
71	Reklama, ko'rgazmalar xizmatlari	25 000
72	Geologiya va tabiiyliklarni qidirish, va gidrometeorologiya xizmatlari	44 300
73	Mehmonxona xo'jaligi	28 400
74	Umumiy yashash joylari	21 700
75	Maishiy xizmatning noishlab chiqarish turlari	14 260
76	Sartaroshxona, fotosalon, modalar atelezi, poyabzallarni ta'mirlash ustaxonasi	21 700
77	Hammomlar	42 800
78	Saunalar va basseynlar	85 500
79	Paxta (ilgari iste'molda bo'lgan) va jun tozalash hamda titish xizmatlari	14 200
Sog'liqni saqlash, jismoniy tarbiya va ijtimoiy ta'minot		
80	Sog'liqni saqlash	17 700
81	Tibbiy diagnostika xizmati (shu jumladan laboratoriya	33 200
82	Sayyohlik va dam olishni tashkil etish	17 700
83	Fitobar	12 300
84	Madaniy ko'ngilochar markazlar (bilyard, o'yin avtomatlari, diskoteka va boshqalar)	28 400
85	Jismoniy tarbiya va sport	8 700
86	Dorixonalar	14 200
87	Optika, tibbiyot anjomlari va jihozlar savdo do'konlari	22 500
88	Ijtimoiy-dorixonalar	11 500
Ta'lim		
89	Oliy va o'rta-maxsus ta'limi ma'lumotli kadrlarni tayyorlash	14 200
90	O'quv kurslari tashkil etish	29 700
91	Ishchilar va xizmatchilarni tayyorlash va malakasini oshirish	11 615
92	Bolalar umumta'lim maktablari (nodavlat ta'lim muassasalari uchun)	7 245
93	Oliy va o'rta maxsus ta'lim muassasalarida umumiy ovqatlanish	17 500

T/r	Ijaraga beriladigan maydondan foydalanish maqsadi	1 kv.metr maydon uchun 2023-yilga ijara stavkasi (QQS bilan)
94	O'quv muassasalarida umumiy ovqatlanish	8 700
95	Maktabgacha tarbiya muassasalari (nodavlat ta'lim muassasalari uchun)	6 600
96	Madaniyat va san'at	25 000
97	Ko'rgazmalar	20 100
98	Madaniyat va dam olish bog'lari	17 700
99	Botanika bog'lari va zooparklar	17 700
100	Televideniya va radioeshittirishlar redaksiyalari	17 700
101	Kinostudiyalar, ovoz yozish studiyalari	28 405
102	Fan va ilmiy xizmatlar ko'rsatish	10 600
103	Avtomaktablar	12 600
Moliya-kredit faoliyati		
104	Moliya, kredit va pensiya ta'minoti (sug'urtalash va auditorlik faoliyatidan tashqari)	25 000
105	Auditorlik faoliyati	23 400
106	Marketing tadqiqotlari, tijorat, moliya va boshqaruv faoliyatlari bo'yicha maslahatxonalar	25 000
107	Bank faoliyati	25 000
Faoliyatning boshqa turlari		
108	Sug'urta va notarial xizmatlar	25 000
109	Sud va yuridik xizmat muassasalari	21 700
110	Advokatlar kollegiyasi va yuridik maslahatxonalar	21 700
111	Jamoatchilik birlashmalari	7 000
112	Omborxonalar	25 000
113	Davlat tashkilotlariga ofis	10 600
114	Xususiy tashkilotlarga ofis	39 100
115	Arxiv xizmati	8 900
116	Tahririyat va nashriyotlar	14 200
117	Metallolom va ikkilamchi qog'oz (latta) mahsulotlarini to'plash joylari	14 200
118	Turar joy-kommunal xo'jaliklari	14 200
119	Yengil avtomashinalar va boshqa turdagi transport vositalarini ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatish	28 400
120	Vulkanizatsiya, payvandlash, chilangarlik ishlarining barcha turlari	21 900
121	Laboratoriyalar	17 700
122	Turli xizmat turlari to'lovlari (paynet)	71 400
123	Madaniy meros obyektlar bino va inshootlarida joylashgan savdo do'konlari	39 100
124	Madaniy meros obyektlari va inshootlarida joylashgan umumiy ovqatlanish shoxobchalari	34 200
125	Hunarmandchilik turlari bo'yicha (yodgorlik majmualari yasam, misgarlik, o'ymakorlik, rassomchilik, do'ppido'zlik, telnak, cho'girma, chopon,x.k)	21 300
126	Avia kassalar (shu jumladan temir yo'l, avtotransport va boshqalar)	39 100

T/r	Ijaraga beriladigan maydondan foydalanish maqsadi	1 kv.metr maydon uchun 2023-yilga ijara stavkasi (QQS bilan)
127	Bankomatlar	356 600
128	Non-bulka mahsulotlari ishlab chiqarish	21 700

Izoh

- O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 24.07.2014-yildagi 02/107-2670-son topshirig‘iga asosan 2014-yilning 1-avgustidan boshlab "Tadbirkorlik va ishbilarmonlik xarakati" O‘zbekiston Liberal Demokratik partiyasining Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Qashqadaryo, Navoiy, Farg‘ona, Toshkent viloyatlari va Toshkent shahri (shu jumladan Mirobod tumani) Kengashlari, shuningdek, "XXI asr" ijtimoiy-siyosiy gazetasi tahririyati uchun O‘zbekiston Liberal Demokratik Partiyasi balansidagi tegishli davlat mulki obyektlaridan foydalanganlik uchun ijara to‘lovining "nol" stavkasi belgilangan.

- O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 29.09.2017-yildagi "Navoiy viloyatining Tomdi, Uchquduq, Konimex, Nuroa tumanlari va Zarafshon shahrini kompleks rivojlantirish hamda aholisi bandligini ta‘minlashga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida"gi PQ-3301-son qaroriga asosan, 2017-yilning 1-oktabridan boshlab Navoiy viloyatining Tomdi, Uchquduq, Konimex, Nurota tumanlari va Zarafshon shahrida joylashgan foydalanilmasdan bo‘sh turgan davlat mulki obyektlari tadbirkorlik subyektlariga yangi ish o‘rinlarini yaratish sharti bilan 10 yillik muddatga ijara to‘lovining "nol" stavkasi asosida ijaraga beriladi.

- O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 16.10.2017-yildagi "Yoshlar tadbirkorlik klasterlarini tashkil etishga doir tashkiliy chora-tadbirlari to‘g‘risida"gi 834-son qarori muvofiq, davlat mulki, shu jumladan erkin iqtisodiy va kichik sanoat zonalari hududida joylashgan davlat mulki obyektlari O‘zbekiston Yoshlar ittifoqi a‘zosi bo‘lgan yosh tadbirkorlarga O‘zbekiston Yoshlar ittifoqining shahar va tuman kengashlari tavsiyanomasiga asosan 5 yildan ko‘p bo‘lmagan muddatga ijara to‘lovining "nol" stavkasi asosida beriladi.

- O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 16.08.2017-yildagi 14/1-1959-sonli topshirig‘iga asosan 2018-yildan boshlab O‘zbekiston Respublikasi Jismoniy tarbiya va sport vazirligining tavsiyasiga asosan Olimpiya o‘yinlari g‘oliblari va sovrindorlariga xususiy sport muassasalarini tashkil etish uchun davlat mulki, shu jumladan aholi kam joylashgan hududlardagi yer maydonlari ijara to‘lovining "nol"

stavkasi asosida ajratiladi.

Navoiy viloyat hokimining
2023 yil 30 yanvardagi
9-5-0-Q/23-son qaroriga
3-ilova

Ijara to'lovi stavkalariga qo'llaniladigan oshiruvchi koeffitsiyentlar

1. Hududiy zonalar koeffitsiyenti-(Kz)			
T/r	Hududlar nomi	Zonalar	Koeffitsiyent
1	Navoiy shahri Zarafshon shahri Karmana tumani	1	3,0
		2	2,5
		3	2,0
		4	1,5
2	Qiziltepa tumani Xatirchi tumani Uchquduq tumani Navbahor tumani	1	2,5
		2	2,0
		3	1,5
		4	1,0
3	Konimex tumani Nurota tumani G'azg'on shahri Tomdi tumani	1	2,0
		2	1,5
		2	1,5
		4	1,0
II. Binoning qurilish turi bo'yicha koeffitsiyenti-(Kk)			
2.1	Alohida turgan bino		1,5
2.2	Binoga taqab qurilgan		1,2
2.3	Binoning ustka qismi, cherdak, bolaxona		0,8
2.4	Yarim yerto'la, yer to'la		0,7
III. Tutashib ketgan xududdan foydalanish koeffitsiyenti- (Kx)			
3.1	Yer maydoni mavjud bo'lganda		0,7
IV. Tijorat maqsadida foydalanishda qulaylik koeffitsiyenti -(Ko)			
4.1	Asosiy qatnov yo'llarida joylashganda		1,0
4.2	Ikkinchi darajali transport qatnovi yo'llarida joylashganda		0,7

Izoh:

a) Binolar va inshootlar bo'yicha ijara to'lovini (ijara to'lovining tayanch stavkasi) hisoblab chiqish quyidagi tarzda aniqlanadi:

$$Ts=Es \cdot Kz \cdot (Kq+Kh+Ko), \text{ bunda:}$$

Ts — bir yilga bir kv. metr uchun ijara to'lovining tayanch stavkasi;

Es — bir yilga bir kv. metr uchun eng kam stavka;

Kz — hududiy zonalar koeffitsiyenti;

Kq — qurilish turi bo'yicha koeffitsiyent (alohida turgan bino, qo'shimcha qurilgan bino, binoning yuqori qismi, cherdak, boloxona, yarim yerto'la, yerto'la);

Kh — tutashib ketgan hududdan foydalanish koeffitsiyenti;

Ko — tijorat maqsadlarida foydalanishda qulaylik koeffitsiyenti (asosiy avtotransport yo'llari bo'ylab joylashish, ikkinchi darajali avtotransport yo'llariga chiqishda joylashish va boshqalar).

b) Mol-mulkning boshqa turlari uchun ijara to'lovi stavkasini hisoblashda, agar ijaraga topshirilayotgan mulkdan amalda foydalanilgan muddat undan samarali foydalanish muddatidan ortiq bo'lmasa yoki ushbu muddatga teng bo'lsa, yoki amalda foydalanilgan muddatni aniqlash mumkin bo'lmasa, mol-mulk tiklanish qiymatining 30 foizidan, agar ijaraga topshirilayotgan mol-mulkdan amalda foydalanilgan muddat undan samarali foydalanish muddatidan ortiq bo'lmasa, mol-mulk tiklanish qiymatining 20 foizidan kam bo'lishi mumkin emas.

v) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 30-dekabrda PF-287-son Farmonining 3-ilovasiga asosan 4-, 5-toifaga tushgan tumanlarda Davlat mulki obyektlarini ijaraga berishda auksionga chiqariladigan boshlang'ich narxni belgilash (amaldagi stavkaga nisbatan) 50% chegirma beriladi.

1-toifa Navoiy shahar;

2-toifa Zarafshon shahri, Karmana tumani, Navbahor tumani, Uchquduq tumani;

3-toifa G'azg'on shahri, Nurota tumani, Qiziltepa tumani;

4-toifa Konimex tumani, Xatirchi tumani;

5-toifa Tomdi tumani;